TARJIMASHUNOSLIK

UO‘K(UDC, УДК): 81-26

SIYOSIY MATNLARNING TIPOLOGIK KLASSIFIKATSIYASI VA TARJIMA MUAMMOLARI[17]

Botirova Nilufar Salimjon qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
tayanch doktoranti
Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: nilufarabdiyeva73@gmail.com
ORCID ID: 0009-0003-7860-834X

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada siyosiy matnlarni tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan tipologik tasniflash mezonlari va o‘zbek-ingliz tarjimasida yuzaga keladigan asosiy muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqot materiali sifatida https://lex.uz/ manbalari asosida shakllantirilgan 6428 ta parallel o‘zbekcha-inglizcha segmentdan iborat elektron korpus hamda Prezident qarorlari, strategik dasturlar, ma’muriy-huquqiy hujjatlar va xalqaro shartnomalarga oid rasmiy tarjimalar tanlandi. Siyosiy matnlar institutsional maqomi, kommunikativ maqsadi, dominant funksiyasi, janri, sintaktik tuzilishi va pragmatik yo‘nalishiga ko‘ra normativ-huquqiy, dasturiy-strategik, ma’muriy-institutsional, diplomatik, ijtimoiy-siyosiy va gibrid turlarga ajratildi. Qiyosiy-tipologik, funksional-pragmatik, diskursiv va korpus tahlili natijasida terminologik ekvivalentlik, deontik modallik, performativ formulalar, institutsional nomlar, murakkab nominal konstruksiyalar, agentlikning ifodalanishi hamda mafkuraviy-pragmatik ma’no tarjimaning eng muhim muammolari ekanligi aniqlandi. Maqolada rasmiy korpusdan olingan misollar asosida literal moslik har doim funksional va yuridik ekvivalentlikni ta’minlamasligi ko‘rsatildi. Yakunda siyosiy matn tarjimasi uchun matn turini oldindan aniqlash, terminologik bazani standartlashtirish, modal-performativ modellarni uyg‘unlashtirish va parallel korpus yordamida sifat nazoratini amalga oshirishga asoslangan ko‘p bosqichli tarjima modeli taklif etiladi.

KALIT SO‘ZLAR

Siyosiy matn, tipologik klassifikatsiya, siyosiy diskurs, institutsional tarjima, huquqiy tarjima, deontik modallik, terminologik ekvivalentlik, pragmatik adekvatlik, parallel korpus, tarjima strategiyasi.

Received: July 27, 2026
Accepted: August 13, 2026
Available online: October 25, 2026

[17] **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**
Botirova N. Siyosiy matnlarning tipologik klassifikatsiyasi va tarjima muammolari. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 5(13) — B. 240-255.

TYPOLOGICAL CLASSIFICATION OF POLITICAL TEXTS AND TRANSLATION PROBLEMS

Nilufar Botirova Salimjon qizi
PhD Student of
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail:nilufarabdiyeva73@gmail.com
ORCID ID: 0009-0003-7860-834X

ABSTRACT

The article examines criteria for the typological classification of political texts and the main problems arising in Uzbek-English translation. The empirical material consists of 6,428 parallel segments from an electronic corpus compiled from official https://lex.uz/ sources, including presidential resolutions, strategic programs, administrative and legal documents, and international treaties. Political texts are classified according to institutional status, communicative purpose, dominant function, genre, syntactic organization and pragmatic orientation. The proposed taxonomy distinguishes normative-legal, program-strategic, administrative-institutional, diplomatic, socio-political and hybrid text types. Comparative-typological, functional-pragmatic, discourse and corpus analyses show that the major translation difficulties concern terminological equivalence, deontic modality, performative formulae, institutional names, complex nominal structures, the representation of agency and ideologically or pragmatically marked meanings. Examples from the official corpus demonstrate that literal matching does not necessarily ensure functional or legal equivalence. The study proposes a multi-stage translation model based on the preliminary identification of text type, terminology standardization, harmonization of modal and performative patterns, and quality control through parallel-corpus comparison. The model can support the preparation, editing and evaluation of official English translations of Uzbek political and legal documents.

KEYWORDS

Political text, typological classification, political discourse, institutional translation, legal translation, deontic modality, terminological equivalence, pragmatic adequacy, parallel corpus, translation strategy.

ТИПОЛОГИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ПОЛИТИЧЕСКИХ ТЕКСТОВ И ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА

Ботирова Нилуфар Салимжоновна
базовый докторант
Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан
E-mail: nilufarabdiyeva73@gmail.com
ORCID ID: 0009-0003-7860-834X

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются критерии типологической классификации политических текстов и основные проблемы их перевода с узбекского языка на английский. Материал исследования составили 6428 параллельных сегментов из электронного корпуса, сформированного на основе официальных источников https://lex.uz/, а также тексты указов и постановлений Президента, стратегических программ, административно-правовых документов и международных договоров. Политические тексты классифицируются по институциональному статусу, коммуникативной цели, доминирующей функции, жанру, синтаксической организации и прагматической направленности. Выделяются нормативно-правовой, программно-стратегический, административно-институциональный, дипломатический, социально-политический и гибридный типы. Сопоставительно-типологический, функционально-прагматический, дискурсивный и корпусный анализ показал, что наиболее существенные трудности связаны с терминологической эквивалентностью, передачей деонтической модальности, перформативных формул, названий институтов, сложных номинальных конструкций, субъектности действия и идеологически маркированных смыслов. На примерах официальных переводов доказано, что буквальное соответствие не всегда обеспечивает функциональную и юридическую эквивалентность. Предлагается многоэтапная модель перевода, включающая предварительное определение типа текста, стандартизацию терминологии, согласование модально-перформативных моделей и проверку качества по параллельному корпусу. Полученные результаты позволяют сформулировать практические рекомендации для подготовки, редактирования и оценки официальных узбекско-английских переводов политических и правовых документов.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Политический текст, типологическая классификация, политический дискурс, институциональный перевод, юридический перевод, деонтическая модальность, терминологическая эквивалентность, прагматическая адекватность, параллельный корпус, стратегия перевода.

KIRISH

Siyosiy faoliyat til orqali shakllanadi, huquqiy kuchga ega boʻladi va jamiyatga yetkaziladi. Shu sababli siyosiy matn faqat axborot uzatuvchi birlik emas, balki vakolatni belgilovchi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, qaror qabul qilishni asoslovchi hamda jamoatchilik xulq-atvoriga ta’sir koʻrsatuvchi institutsional harakatdir(van Dijk T. A., 1997, 46). Siyosiy diskursni tahlil qilishda matnning muallifi, adresati, hokimiyat munosabatlari, kommunikativ vaziyat va kutilayotgan natija bir butun tizim sifatida qaraladi. Tarjima jarayonida esa ushbu omillarga yana ikki huquqiy-lisoniy tizim, ikki institutsional an’ana va ikki madaniy kontekst oʻrtasidagi muvofiqlik masalasi qoʻshiladi (Chilton P., 2004, 53).

Siyosiy matnlarning oʻzbek tilidan ingliz tiliga tarjimasi soʻnggi yillarda davlat boshqaruvi, xalqaro hamkorlik, investitsiya siyosati, inson huquqlari, sogʻliqni saqlash va raqamli transformatsiya sohalarida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Rasmiy hujjat tarjimasi notoʻgʻri yoki noizchil bajarilganda atama doirasi torayishi, majburiyat darajasi oʻzgarishi, subyekt va obyekt munosabati xiralashishi yoki huquqiy oqibat boshqacha talqin qilinishi mumkin. Shuning uchun tarjimon avvalo matn turini, uning yuridik maqomini va dominant funksiyasini aniqlashi zarur. A.Trosborg matn turi, janr va registr tushunchalarini bir-biridan ajratish tarjima qarorlarining asoslangan boʻlishiga xizmat qilishini koʻrsatadi (Trosborg A., 1997a, 3-24). J.Sager esa matn turi tarjimaning maqsadi, leksik tanlov va tuzilishiga bevosita ta’sir qilishini ta’kidlaydi (Sager J. C., 1997, 25-42).

Mavzuning dolzarbligi oʻzbek siyosiy-huquqiy hujjatlarining inglizcha tarjimalari soni ortib borayotgani, bir xil rasmiy formulalarning turlicha berilishi va siyosiy matnlarni yagona tipologik mezonlar asosida baholash zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi siyosiy matnlarni faqat mavzu yoki hujjat nomi boʻyicha emas, balki institutsional maqom, kommunikativ maqsad, dominant funksiya, sintaktik tashkil va pragmatik kuch birligida tasniflash hamda ushbu tipologiyani oʻzbek-ingliz parallel korpusiga tatbiq etishdan iborat.

Maqolaning maqsadi siyosiy matnlarning funksional-tipologik modelini ishlab chiqish va har bir turga xos tarjima muammolarini rasmiy oʻzbekcha-

inglizcha misollar asosida ochib berishdir. Buning uchun siyosiy matn va siyosiy diskurs tushunchalarining chegaralarini belgilash; korpusdagi matnlarni tipologik guruhlarga ajratish; terminologik, grammatik, sintaktik va pragmatik siljishlarni aniqlash; samarali tarjima strategiyalarini tizimlashtirish vazifalari qo‘yildi.

METODLAR

Tadqiqot materiali sifatida muallif tomonidan shakllantirilgan elektron jadvaldagi 6428 ta o‘zbekcha-inglizcha parallel segmentdan foydalanildi. Jadvalda o‘zbek siyosiy matni, uning inglizcha rasmiy tarjimasi, siyosiy terminlar, manba havolasi, matn turi, funksional turi, uslubiy darajasi, sintaktik va pragmatik xususiyatlarni qayd etish uchun alohida ustunlar mavjud. Korpus O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Prezident qarorlari, strategiyalar, dasturlar, ma’muriy-huquqiy hujjatlar va xalqaro shartnomalarga oid materiallarni qamrab oladi. Empirik misollar https://lex.uz/ O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasidagi rasmiy o‘zbekcha matnlar hamda ularning rasmiy inglizcha tarjimalari asosida tanlandi; jumladan, PQ-243, PQ-300 va PQ-312-son hujjatlar korpusning mazkur maqolada bevosita tahlil qilingan qismini tashkil etadi (PQ-243, 2022; PQ-300, 2023; PQ-312, 2024; O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023). Misollar manbadagi shakli saqlangan holda tahlil qilindi, biroq ilmiy tavsifda shaxs nomlari va sanalar asosiy tipologik mezon sifatida olinmadi.

Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, funksional-pragmatik, kritik diskurs va korpus tahlili metodlari uyg‘unlashtirildi. Qiyosiy-tipologik tahlil o‘zbekcha va inglizcha segmentlarning leksik-grammatik tuzilishini solishtirishga; funksional-pragmatik tahlil hujjatning maqsadi va illokutiv kuchini aniqlashga; kritik diskurs tahlili hokimiyat, agentlik va qadriyatlarning lisoniy ifodasini kuzatishga xizmat qildi. Korpus yondashuvi esa takrorlanuvchi rasmiy formulalar, kollokatsiyalar va terminologik variantlarni aniqlash imkonini berdi. Tarjima sifatini baholashda semantik moslik bilan birga funksional, yuridik va pragmatik ekvivalentlik mezonlari qo‘llandi (Fairclough I., 2012, 13).

Tasniflash uchun oltita mezon tanlandi: 1) matn yaratuvchi institut; 2) hujjatning yuridik kuchi; 3) dominant kommunikativ funksiya; 4) adresat doirasi; 5)

janr va kompozitsiya; 6) modal-pragmatik kuch. Mazkur yondashuv matnni bitta qat’iy sinfga qamab qo‘ymaydi: siyosiy hujjat bir vaqtning o‘zida axborot berishi, buyurishi, legitimlashtirishi va ishontirishi mumkin. Shu bois gibridlik siyosiy matnlarning tabiiy belgisi sifatida qabul qilindi (Trosborg A., 1997b, 145-158).

NATIJALAR

Tahlil natijasida o‘zbek siyosiy matnlarining quyidagi funksional-tipologik modeli shakllantirildi. Tasnif matnning nomiga emas, uning huquqiy maqomi, kommunikativ vazifasi va dominant lisoniy belgilariga tayanadi.

1-jadval. Siyosiy matnlarning funksional-tipologik tasnifi

Matn turi	Dominant funksiya	Lisoniy belgilar	Tarjima ustuvorligi
Normativ-huquqiy	Huquq va majburiyatni belgilash	deontik modal birliklar, performativ fe’llar, aniq referensiya	yuridik kuch va formulaviy ekvivalentlik
Dasturiy-strategik	Maqsad, ustuvor yo‘nalish va kelajak harakatini belgilash	nominalizatsiya, maqsad konstruksiyalari, indikator va reja leksikasi	maqsad va siyosiy konseptlarning izchilligi
Ma’muriy-institutsional	Vakolat, tuzilma va ijro mexanizmini tartibga solish	institutsional nomlar, passiv va majhul konstruksiyalar, ro‘yxatlar	vakolat subyekti va agentlikni aniq berish
Diplomatik / shartnomaviy	Davlatlararo majburiyat va kelishuvni mustahkamlash	xalqaro-huquqiy terminlar, tenglik formulalari, protokol uslubi	huquqiy konsept va ratifikatsiya bosqichini moslashtirish
Ijtimoiy-siyosiy	Aholiga qaratilgan siyosiy chora va xizmatlarni bayon qilish	ijtimoiy guruhlar, foyda, himoya, qo‘llab-quvvatlash leksikasi	inklyuzivlik va adresatga yo‘naltirilgan ma’no
Gibrid siyosiy	Bir nechta funksiyani birlashtirish	normativ, informativ, argumentativ va tashviqiy qatlamlarning qo‘shilishi	funksiyalar ierarxiyasini saqlash

Normativ-huquqiy matnlarda tarjimaning bosh mezoni mazmuniy o‘xshashlik emas, balki huquqiy ta’sirning tengligidir. O‘zbek tilidagi “belgilansinki”, “tasdiqlansin”, “zimmasiga yuklansin”, “yo‘l qo‘yilmaydi” kabi birliklar ingliz tilida *shall, is hereby determined, shall be approved, shall be entrusted, is not permitted* kabi barqaror modellar orqali beriladi. Biroq “shall” yordamchi fe’lining haddan tashqari ko‘p yoki kam ishlatilishi majburiyat darajasini o‘zgartirishi

mumkin. Huquqiy tarjimada deontik kuchning pasayishi normativ talabni oddiy tavsifga aylantiradi, kuchayishi esa manbada mavjud bo‘lmagan majburiyatni yuzaga keltiradi (Šarčević S., 1997, 20).

Dasturiy-strategik matnlarda kelajak tasviri va davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari asosiy o‘rinni egallaydi. “Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish” segmentining *“creating appropriate conditions for every person to realize their potential”* tarzida berilishi semantik va pragmatik jihatdan mosdir. Biroq “xalq xizmatidagi davlat boshqaruvi” birikmasini faqat “*public administration*” deb qisqartirish siyosiy qadriyat komponentini yo‘qotadi; “*public administration in the service of the people”* shakli esa konseptual urg‘uni saqlaydi. Strategik matn tarjimasida mazmunni ixchamlashtirish mumkin, ammo qadriyat, maqsad va adresatga oid semantik komponentlar tushirib qoldirilmasligi lozim. Ushbu misollar “O‘zbekiston 2030” strategiyasini amalga oshirishga oid rasmiy materialdan olingan (PQ-300, 2023).

Ma’muriy-institutsional matnlar vakolatlarning kimga, qanday tartibda va qaysi chegarada berilganini ifodalaydi. O‘zbek tilidagi uzun aniqlovchi birikmalar ingliz tilida ketma-ket prepozitsion guruhlar yoki relative clause orqali qayta tuziladi. Masalan, “*Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti oldida javobgardir*”(O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi) jumlasi korpusda “*The Cabinet of Ministers is accountable for its activities to the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan and the President of the Republic of Uzbekistan*” tarzida berilgan. Bu yerda accountable for its activities konstruksiyasi “*o‘z faoliyatida javobgar*”ning tabiiy institutsional ekvivalentidir. Shu segmentning boshqa variantida “*shall be responsible before*” ishlatilgani kuzatiladi; grammatik jihatdan mumkin bo‘lsa-da, accountable to modeli ingliz rasmiy uslubida aniqroq va idiomatikroqdir. Mazkur misol O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining rasmiy o‘zbekcha va inglizcha matnlari asosida keltirildi (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023).

Diplomatik matnlarda huquqiy konseptni funksional almashtirish zarur bo‘lishi mumkin. “Xalqaro shartnomani tasdiqlash to‘g‘risida” sarlavhasining “On ratification of an international treaty” deb tarjima qilinishi so‘zma-so‘z emas: tasdiqlash umumiy ma’noda “approval” bo‘lsa-da, xalqaro shartnomaning davlat ichki tartib-taomilidagi huquqiy bosqichi “ratification” termini bilan ifodalanadi. Demak, tarjimon lug‘aviy ekvivalentdan ko‘ra huquqiy institutga mos terminni tanlaydi. Bu holat funksional ekvivalentlik va yuridik adekvatlikning literal moslikdan ustun ekanini ko‘rsatadi (Nord C., 1997, 43-66).

Ijtimoiy-siyosiy hujjatlar sog‘liqni saqlash, ta’lim, xotin-qizlar, yoshlar, kambag‘allikni qisqartirish va bolalarni himoya qilish kabi sohalarda davlat choralarini bayon etadi. Bu turdagi matnlarda “qo‘llab-quvvatlash”, “qamrovni

oshirish”, “himoya qilish”, “imkoniyat yaratish” kabi ijobiy baholovchi kollokatsiyalar takrorlanadi. Ularning inglizcha tarjimasida “*support, increase coverage, protect, create opportunities”* birliklari qo‘llanadi. Biroq dealing with women’s issues kabi birikmalar ba’zi kontekstlarda muammoni boshqarish ma’nosini bersa, “*working with women’s issues institutsional”* jarayonni neytralroq ifodalaydi. Pragmatik registr va adresatga nisbatan hurmatni saqlash uchun stigmalovchi yoki haddan tashqari texnokratik birliklardan qochish talab etiladi. Sog‘liqni saqlashga oid ushbu leksik-pragmatik kuzatuvlar PQ-243-son qarorning parallel segmentlari bilan ham tasdiqlanadi (PQ-243, 2022).

Gibrid siyosiy matnlar eng murakkab turdir. Prezident qarori bir vaqtning o‘zida vaziyatni baholaydi, maqsadni asoslaydi, normativ topshiriq beradi, ijro mexanizmini belgilaydi va jamoatchilik uchun siyosiy signal yaratadi. Trosborg gibrid siyosiy matnlarni tarjima qilishda bir matn ichidagi turli funksional qatlamlar uchun turli strategiyalar zarurligini ta’kidlaydi. Masalan, kirishdagi maqsad konstruksiyasi kommunikativ-argumentativ usulda, bandlardagi topshiriqlar normativ formulalar orqali, ilovadagi jadval esa terminologik va strukturaviy standartlashtirish orqali tarjima qilinadi (Trosborg A., 1997b, 145-158).

2-jadval. Parallel korpusdagi tarjima muammolari va yechimlari

O‘zbekcha segment	Inglizcha rasmiy tarjima	Muammo turi	Baholash	Tavsiya
Xalqaro shartnomani tasdiqlash to‘g‘risida	On ratification of an international treaty	huquqiy konsept	funksional ekvivalent	tasdiqlashni kontekstga ko‘ra ratification bilan berish
Vazirlar Mahkamasi ... oldida javobgardir	The Cabinet of Ministers is accountable ... to the Oliy Majlis and the President	institutsional kollokatsiya	idiomatik va aniq	accountable to modelini standartlashtirish
belgilansinki	It is determined that / Let it be determined that	performativ formula	variantlilik mavjud	bitta korpus standartini tanlash
zimmasiga yuklansin	shall be entrusted to / shall be responsible for	agentlik va majburiyat	kontekstga bog‘liq	ijro, nazorat va javobgarlikni farqlash

O‘zbekcha segment	Inglizcha rasmiy tarjima	Muammo turi	Baholash	Tavsiya
dolzarb virusli infeksiyalar	current / urgent viral infections	semantik noziklik	current ba’zan kuchsiz	urgent yoki priority viral infectionsni kontekstda tekshirish
portfel kafilligi	portfolio guarantee	maxsus termin	terminologik mos	butun hujjatda bir xil variantni saqlash
xalq xizmatidagi davlat boshqaruvi	public administration in the service of the people	siyosiy konsept	pragmatik ma’no saqlangan	in the service of the people qismini tushirmaslik
yagona elektron reyestrni yaratish va yuritish	creation and maintenance of a single electronic registry	nominal tuzilma	strukturaviy mos	create/maintain fe’llari bilan ham izchil ishlash

Korpus tahlili tarjima variantlarining uch asosiy sababini ko‘rsatdi. Birinchisi, rasmiy ingliz tilida parallel ishlatiladigan modellar mavjudligi: is determined that, it is hereby determined that, shall be determined. Ikkinchisi, tarjimonning hujjat janrini turlicha talqin qilishi: qaror sarlavhasida decision va resolution variantlari uchraydi. Uchinchisi, ingliz tilidagi institutsional uslub talabiga mos ravishda gap tuzilishining qayta tashkil qilinishi. Ushbu variantlilikning barchasi xato emas, biroq bitta hujjat, hujjatlar turkumi yoki davlat tarjima tizimi doirasida izchillik talab qilinadi. Institutsional tarjimada alohida tarjimonning individual uslubi terminologik standartdan ustun bo‘la olmaydi (Koskinen K., 2008, 252-256). “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturiga oid materialdagi portfolio guarantee birligi ham terminologik izchillik zaruratini ko‘rsatadi (PQ-312, 2024).

Sintaktik jihatdan o‘zbek siyosiy matnlarida ketma-ket aniqlovchilar, maqsad holi, ravishdosh konstruksiyalari va bir necha topshiriqni birlashtirgan uzun gaplar ko‘p uchraydi. Ingliz tilida bunday gapni aynan nusxalash o‘qilish darajasini pasaytiradi va bog‘lanishlarni noaniq qiladi. Shu bois gapni funksional segmentlarga ajratish, parallel ro‘yxat tuzilishini yaratish va referensial bog‘lanishlarni takroriy ot

yoki olmosh yordamida aniqlashtirish maqsadga muvofiq. Biroq segmentlash normativ shartning doirasini o‘zgartirmasligi kerak. Hatim va Mason tarjimani kommunikativ jarayon deb baholar ekan, matnning mikrostrukturasi makrofunksiyaga bo‘ysunishini qayd etadi (Hatim B., Mason I., 1997).

Terminologik muammolar bir so‘zning lug‘aviy ma’nosi bilan emas, uning institutsional tizimdagi o‘rni bilan belgilanadi. Qaror, farmon, nizom, tartib, yo‘riqnoma, vakolatli organ, mas’ul ijrochi, budjetdan tashqari mablag‘lar kabi birliklar hujjatlar kesimida yagona terminologik bazaga ega bo‘lishi zarur. Masalan, qaror kontekstga qarab “decision” yoki “resolution” tarzida berilishi mumkin, yakka ijro hokimiyati hujjati uchun decision, kollegial organ yoki xalqaro tashkilot hujjati uchun resolution ko‘proq tabiiy bo‘lishi mumkin. Tarjima strategiyasi muallif institut, hujjatning yuridik maqomi va ingliz tilidagi janr konvensiyasiga asoslanishi lozim (Bhatia V. K., 1993, 45-47).

Mafkuraviy-pragmatik qatlam ayniqsa strategiya va siyosiy dasturlarda seziladi. “Inson qadri”, “xalq xizmatidagi davlat”, “xavfsiz va tinchliksevar davlat”, “uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kabi birliklar davlat siyosatining qiymat ramkalarini ifodalaydi. Ularni neytral texnik birliklar bilan almashtirish axborotning asosiy qismini yetkazsa-da, siyosiy pozitsiyani susaytiradi.

MUNOZARALAR

Olingan natijalar siyosiy matnlarni faqat “rasmiy uslub” doirasida umumlashtirish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Bir xil rasmiy registrga mansub matnlar turli kommunikativ kuchga ega: konstitutsiyaviy norma huquqiy holatni belgilaydi, strategiya maqsadni konseptuallashtiradi, ma’muriy qaror ijro mexanizmini o‘rnatadi, xalqaro shartnoma davlatlar o‘rtasidagi majburiyatni mustahkamlaydi. Reissning matn funksiyasiga asoslangan tasnifi va Nordning funksional modeli tarjimon qarorini maqsad bilan bog‘lash imkonini beradi (Nord C., 1997, 43-66). Biroq siyosiy matnlar ko‘pincha gibrid bo‘lgani uchun yagona strategiya yetarli emas (Reiss K., 2000, 56-97).

Siyosiy tarjimada “aniqlik” ham ko‘p qatlamli tushunchadir. Semantik aniqlik so‘z ma’nosining mosligini, huquqiy aniqlik norma va vakolat doirasining

tengligini, pragmatik aniqlik esa matnning adresatga koʻrsatadigan taʼsirini saqlashni anglatadi. Masalan, “zimmasiga yuklansin” formulasi ijro uchun masʼullikni bildirsa, inglizcha shall be entrusted to vakolat-topshiriqni, shall be responsible for esa javobgarlikni oldinga chiqaradi. Ularning tanlovi bandning huquqiy vazifasiga qarab amalga oshirilishi kerak. Catfordning til sathlari oʻrtasidagi siljish haqidagi qarashlari bunday grammatik qayta tuzishni tushuntirsada, siyosiy tarjimada funksional va institutsional kontekst hal qiluvchi oʻrin tutadi (Catford J. C., 1965, 119-144).

Korpusdagi misollar tarjima xotirasi va terminologik bazadan foydalanish zaruratini tasdiqlaydi. Bir xil formula turli hujjatlarda turlicha tarjima qilinsa, huquqiy maʼno har doim buzilmasligi mumkin, ammo davlatning ingliz tilidagi institutsional ovozi parchalangan koʻrinadi. Parallel korpus tarjimonga mavjud ekvivalentlarni, ularning qoʻllanish chastotasi va kontekstini koʻrsatadi. Shu bilan birga, korpusdagi rasmiy tarjimani mutlaq norma deb qabul qilish mumkin emas, undagi variantlar qiyosiy-huquqiy va stilistik ekspertizadan oʻtkazilishi kerak. Toury tarjima normalarini tavsiflash zarurligini(Touri G.1995, 77-92), Venuti esa tarjimon tanlovining koʻrinmas siyosiy oqibatlarini koʻrsatadi (Venuti L., 2017, 68-112).

Siyosiy matn tarjimasining amaliy modeli besh bosqichdan iborat boʻlishi mumkin. Birinchi bosqichda hujjat turi, yuridik maqomi, muallif instituti va adresat aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda terminlar, institutsional nomlar va qisqartmalar uchun tasdiqlangan ekvivalentlar ajratiladi. Uchinchi bosqichda modal-performativ formulalar xaritasi tuziladi: *belgilansin - shall be determined, tasdiqlansin - shall be approved, yoʻl qoʻyilmaydi - shall not be permitted va hokazo*. Toʻrtinchi bosqichda murakkab gaplar funksional segmentlarga ajratilib, agentlik va referensiya tekshiriladi. Beshinchi bosqichda tarjima parallel korpus, terminologik baza va yuridik muharrir nazorati yordamida verifikatsiya qilinadi.

Tarjimon kompetensiyasi ham koʻp tarkibli boʻlishi kerak. Til kompetensiyasidan tashqari siyosiy tizim, huquqiy institutlar, hujjatshunoslik, terminologiya boshqaruvi va diskurs tahlili boʻyicha bilim zarur. Ayniqsa oʻzbek–

ingliz yo‘nalishida tashkilot nomlarini, normativ hujjat turlarini va davlat boshqaruviga xos formulalarni standartlashtirish muhim.

XULOSA

Siyosiy matnlarning tipologik klassifikatsiyasi tarjima sifatini oshiruvchi nazariy tasnifgina emas, balki amaliy qarorlar tizimidir. Tadqiqot natijasida siyosiy matnlar normativ-huquqiy, dasturiy-strategik, ma’muriy-institutsional, diplomatik, ijtimoiy-siyosiy va gibrid turlarga ajratildi. Har bir tur dominant funksiya, modal-pragmatik kuch, sintaktik tashkil va terminologik qatlam bilan farqlanishi aniqlandi.

O‘zbek-ingliz tarjimasidagi asosiy muammolar terminologik ekvivalentlik, deontik modallik, performativ formulalar, institutsional nomlar, murakkab nominal-sintaktik tuzilma, agentlik va siyosiy qadriyatlarni ifodalash bilan bog‘liq. Rasmiy korpus misollari literal tarjima bilan funksional-yuridik ekvivalentlik har doim mos kelmasligini ko‘rsatdi. Shu sababli tarjimon matn turini aniqlashi, hujjatning huquqiy kuchini hisobga olishi va janr konvensiyalariga mos strategiyani tanlashi kerak.

Amaliy jihatdan davlat organlari uchun yagona o‘zbekcha-inglizcha siyosiy-huquqiy terminologik baza, modal-performativ formulalar qo‘llanmasi va tekshirilgan parallel korpus yaratish tavsiya etiladi. Keyingi tadqiqotlarda korpusdagi tarjima variantlarini chastotaviy tahlil qilish, inglizcha rasmiy matnlarning o‘qilish darajasini baholash hamda inson tarjimasi va mashina tarjimasining siyosiy-huquqiy adekvatligini qiyoslash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Baker M. Translation and Conflict: A Narrative Account. – London; New York: Routledge, 2006. – 208 p.
2. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. 3rd ed. – London; New York: Routledge, 2018. – 370 p.
3. Bhatia V. K. Analysing Genre: Language Use in Professional Settings. – London: Longman, 1993. – 246 p.
4. Biel Ł. Lost in the Eurofog: The Textual Fit of Translated Law. – Frankfurt am Main: Peter Lang, 2014. – 347 p.

5. Cao D. Translating Law. – Clevedon: Multilingual Matters, 2007. – 189 p.
6. Catford J. C. A Linguistic Theory of Translation. – London: Oxford University Press, 1965. – 103 p.
7. Chilton P. Analysing Political Discourse: Theory and Practice. – London; New York: Routledge, 2004. – 226 p.
8. Fairclough I., Fairclough N. Political Discourse Analysis: A Method for Advanced Students. – London; New York: Routledge, 2012. – 266 p.
9. Fairclough N. Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language. – London: Longman, 1995. – 265 p.
10. Gagnon C. Political Translation // Handbook of Translation Studies. Vol. 1 / eds. Y. Gambier, L. van Doorslaer. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 2010. – P. 252–256.
11. Gotti M. Specialized Discourse: Linguistic Features and Changing Conventions. – Bern: Peter Lang, 2003. – 351 p.
12. Halliday M. A. K., Matthiessen C. M. I. M. Halliday's Introduction to Functional Grammar. 4th ed. – London; New York: Routledge, 2014. – 786 p.
13. Hatim B., Mason I. The Translator as Communicator. – London; New York: Routledge, 1997. – 244 p.
14. House J. Translation Quality Assessment: Past and Present. – London; New York: Routledge, 2015. – 160 p.
15. Koskinen K. Translating Institutions: An Ethnographic Study of EU Translation. – Manchester: St. Jerome, 2008. – 187 p.
16. Munday J. Translation and Ideology: A Textual Approach // The Translator. – 2007. – Vol. 13, No. 2. – P. 195–217.
17. Munday J., Ramos Pinto S., Blakesley J. Introducing Translation Studies: Theories and Applications. 5th ed. – London; New York: Routledge, 2022. – 303 p.
18. Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988. – 292 p.
19. Nida E. A., Taber C. R. The Theory and Practice of Translation. – Leiden: Brill, 1969. – 220 p.

20. Nord C. A Functional Typology of Translation // Text Typology and Translation / ed. A. Trosborg. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1997. – P. 43–66.
21. Reiss K. Translation Criticism: The Potentials and Limitations. – Manchester: St. Jerome, 2000. – 127 p.
22. Sager J. C. Text Types and Translation // Text Typology and Translation / ed. A. Trosborg. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1997. – P. 25–42.
23. Schäffner C. Strategies of Translating Political Texts // Text Typology and Translation / ed. A. Trosborg. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1997. – P. 119–144.
24. Schäffner C. Political Discourse Analysis from the Point of View of Translation Studies // Journal of Language and Politics. – 2004. – Vol. 3, No. 1. – P. 117–150.
25. Šarčević S. New Approach to Legal Translation. – The Hague: Kluwer Law International, 1997. – 308 p.
26. Toury G. Descriptive Translation Studies and Beyond. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1995. – 311 p.
27. Trosborg A. Text Typology: Register, Genre and Text Type // Text Typology and Translation / ed. A. Trosborg. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1997. – P. 3–24.
28. Trosborg A. Translating Hybrid Political Texts // Text Typology and Translation / ed. A. Trosborg. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1997. – P. 145–158.
29. van Dijk T. A. What Is Political Discourse Analysis? // Belgian Journal of Linguistics. – 1997. – Vol. 11. – P. 11–52.
30. Venuti L. The Translator's Invisibility: A History of Translation. 3rd ed. – London; New York: Routledge, 2017. – 344 p.
31. Wodak R., Meyer M. (eds.) Methods of Critical Discourse Studies. 3rd ed. – London: Sage, 2016. – 272 p.
32. https://lex.uz/docs/-6445145
33. https://lex.uz/uz/docs/-6017442
34. https://lex.uz/uz/docs/-6600390
35. https://lex.uz/uz/docs/-7093832

REFERENCES

1. Baker, M. (2006). *Translation and conflict: A narrative account*. Routledge.
2. Baker, M. (2018). *In other words: A coursebook on translation* (3rd ed.). Routledge.
3. Bhatia, V. K. (1993). *Analysing genre: Language use in professional settings*. Longman.
4. Biel, Ł. (2014). *Lost in the Eurofog: The textual fit of translated law*. Peter Lang. https://doi.org/10.3726/978-3-653-03986-3
5. Cao, D. (2007). *Translating law*. Multilingual Matters.
6. Catford, J. C. (1965). *A linguistic theory of translation*. Oxford University Press.
7. Chilton, P. (2004). *Analysing political discourse: Theory and practice*. Routledge.
8. Fairclough, I., & Fairclough, N. (2012). *Political discourse analysis: A method for advanced students*. Routledge.
9. Fairclough, N. (1995). *Critical discourse analysis: The critical study of language*. Longman.
10. Gagnon, C. (2010). Political translation. In Y. Gambier & L. van Doorslaer (Eds.), *Handbook of translation studies* (Vol. 1, pp. 252–256). John Benjamins. https://doi.org/10.1075/hts.1.pol1
11. Gotti, M. (2003). *Specialized discourse: Linguistic features and changing conventions*. Peter Lang.
12. Halliday, M. A. K., & Matthiessen, C. M. I. M. (2014). *Halliday's introduction to functional grammar* (4th ed.). Routledge.
13. Hatim, B., & Mason, I. (1997). *The translator as communicator*. Routledge.
14. House, J. (2015). *Translation quality assessment: Past and present*. Routledge.
15. Koskinen, K. (2008). *Translating institutions: An ethnographic study of EU translation*. St. Jerome.
16. Munday, J. (2007). Translation and ideology: A textual approach. *The Translator, 13*(2), 195–217. https://doi.org/10.1080/13556509.2007.10799238
17. Munday, J., Ramos Pinto, S., & Blakesley, J. (2022). *Introducing translation studies: Theories and applications* (5th ed.). Routledge.
18. Newmark, P. (1988). *A textbook of translation*. Prentice Hall.
19. Nida, E. A., & Taber, C. R. (1969). *The theory and practice of translation*. Brill.

20. Nord, C. (1997). A functional typology of translation. In A. Trosborg (Ed.), *Text typology and translation* (pp. 43–66). John Benjamins. https://doi.org/10.1075/btl.26.05nor
21. Reiss, K. (2000). *Translation criticism: The potentials and limitations*. St. Jerome.
22. Sager, J. C. (1997). Text types and translation. In A. Trosborg (Ed.), *Text typology and translation* (pp. 25–42). John Benjamins. https://doi.org/10.1075/btl.26.04sag
23. Schäffner, C. (1997). Strategies of translating political texts. In A. Trosborg (Ed.), *Text typology and translation* (pp. 119–144). John Benjamins. https://doi.org/10.1075/btl.26.11sch
24. Schäffner, C. (2004). Political discourse analysis from the point of view of translation studies. *Journal of Language and Politics*, *3*(1), 117–150. https://doi.org/10.1075/jlp.3.1.09sch
25. Šarčević, S. (1997). *New approach to legal translation*. Kluwer Law International.
26. Toury, G. (1995). *Descriptive translation studies and beyond*. John Benjamins.
27. Trosborg, A. (1997a). Text typology: Register, genre and text type. In A. Trosborg (Ed.), *Text typology and translation* (pp. 3–24). John Benjamins. https://doi.org/10.1075/btl.26.03tro
28. Trosborg, A. (1997b). Translating hybrid political texts. In A. Trosborg (Ed.), *Text typology and translation* (pp. 145–158). John Benjamins. https://doi.org/10.1075/btl.26.12tro
29. van Dijk, T. A. (1997). What is political discourse analysis? *Belgian Journal of Linguistics, 11*, 11–52.
30. Venuti, L. (2017). *The translator's invisibility: A history of translation* (3rd ed.). Routledge.
31. Wodak, R., & Meyer, M. (Eds.). (2016). *Methods of critical discourse studies* (3rd ed.). Sage.
32. https://lex.uz/docs/-6445145
33. https://lex.uz/uz/docs/-6017442
34. https://lex.uz/uz/docs/-6600390
35. https://lex.uz/uz/docs/-7093832